

**SHAHNISABZ TUMANINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI IJTIMOIIY IQTISODIIY
HAYOTI 2005-2025 YILLAR ORALIG'IDA**

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2005–2025 yillar oralig'ida Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda hudud iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlari, aholi bandligi, investitsiya faolligi hamda qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sektorining rivojlanish dinamikasi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, dastlab agrar yo'nalish ustun bo'lgan iqtisodiyot keyingi yillarda diversifikatsiyalashgan modelga o'tgan. Ayniqsa, 2017 yildan keyingi islohotlar investitsiyalar hajmining oshishiga va xizmatlar sektorining kengayishiga olib kelgan. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi aholi turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, suv resurslari va texnologik rivojlanish bilan bog'liq muammolar ham aniqlangan.

Kalit so'zlar: Shahrisabz tumani, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, investitsiya faolligi, aholi bandligi, qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar sektori, iqtisodiy diversifikatsiya, infratuzilma, turizm, barqaror rivojlanish.

**ОБЩЕСТВЕННО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ ШАХРИСАБЗСКОГО
РАЙОНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ В 2005-2025 ГОДАХ**

Аннотация. В данной статье проанализированы процессы социально-экономического развития Шахрисабзского района за период 2005–2025 годов. В исследовании рассмотрены структурные изменения экономики региона, занятость населения, инвестиционная активность, а также динамика развития сельского хозяйства, промышленности и сферы услуг. Результаты показали, что экономика, первоначально ориентированная на аграрный сектор, в последующие годы перешла к диверсифицированной модели. Особенно значимыми стали реформы после 2017 года, способствовавшие росту инвестиций и расширению сферы услуг. Кроме того, развитие социальной инфраструктуры способствовало повышению уровня жизни населения. Вместе с тем выявлены проблемы, связанные с водными ресурсами и технологическим развитием.

Ключевые слова: Шахрисабзский район, социально-экономическое развитие, региональная экономика, инвестиционная активность, занятость населения, сельское хозяйство, промышленность, сфера услуг, экономическая диверсификация, инфраструктура, туризм, устойчивое развитие.

**SOCIO-ECONOMIC LIFE OF SHAHRISABZ DISTRICT IN THE YEARS OF
INDEPENDENCE FROM 2005 TO 2025**

Annotation. This article analyzes the socio-economic development processes of Shahrisabz district during the period 2005–2025. The study examines structural changes in the regional economy, employment, investment activity, as well as the development dynamics of agriculture, industry, and the service sector. The results show that an initially agrarian-oriented economy has gradually transformed into a diversified model. In particular, reforms implemented after 2017 contributed to a significant increase in investments and expansion of the service sector. In addition, the development of social infrastructure has improved the living standards of the population. At the same time, several challenges related to water resources and technological development have been identified.

Keywords: *Shahrisabz district, socio-economic development, regional economy, investment activity, employment, agriculture, industry, service sector, economic diversification, infrastructure, tourism, sustainable development.*

Kirish (Introduction). Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, alohida hududlar kesimida iqtisodiy o'sish sur'atlari, aholi turmush darajasi, bandlik ko'rsatkichlari hamda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatining muhim ma'muriy-hududiy birliklaridan biri bo'lgan Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shahrisabz tumani mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirdi. Hudud iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rin tutib kelgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda sanoat, xizmat ko'rsatish va ayniqsa turizm sohalarining rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda [1]. Hududning ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari ham iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanib bormoqda. Aholining bandlik darajasini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, shuningdek, infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish zarurati va hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar ijtimoiy-iqtisodiy tizimni chuqur tahlil qilishni talab etadi [2]. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi 2005–2025 yillar oralig'ida Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, iqtisodiy o'sish omillari hamda ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashdan iboratdir. Shuningdek, hududning rivojlanishida mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash orqali uning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Metod (Methods). Ushbu tadqiqotda Shahrisabz tumanining 2005–2025 yillar oralig'idagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini o'rganish uchun kompleks yondashuv asosida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy geografiya yondashuvlariga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor tumanning iqtisodiy ko'rsatkichlari, aholi va mehnat resurslari, ishlab chiqarish tarmoqlari hamda ijtimoiy infratuzilma rivojlanish dinamikasini aniqlashga qaratildi. Ushbu maqsadga quyida 1-rasmda keltirilgan metodlar orqali erishilgan [3,4].

1-rasmda keltirilgan metodlar Shahrisabz tumanining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga oid mavjud ilmiy manbalar va statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi.


Mazkur metodlar yordamida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi aniqlanib, uning asosiy rivojlanish omillari va mavjud muammolari ilmiy asosda yoritib berildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2005–2025 yillar oralig'ida Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bosqichma-bosqich va tizimli tarzda amalga oshgan. Ushbu davr davomida hudud iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar yuz berib, agrar yo'nalish ustun bo'lgan iqtisodiyotdan diversifikatsiyalashgan iqtisodiy modelga o'tish jarayoni kuzatildi.

2005–2010 yillar oralig'ida tuman iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq bo'lib, band aholining asosiy qismi aynan ushbu sohada faoliyat yuritgan. Ushbu davrda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ulushi nisbatan past bo'lib, iqtisodiyotning umumiy samaradorligi cheklangan edi. Aholi daromadlari asosan agrar faoliyatga bog'liq bo'lganligi sababli ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari ham past darajada shakllangan.


2010–2016 yillar davomida hudud iqtisodiyotida muayyan ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida xizmatlar

sohasi kengaydi, qishloq xo'jaligida esa diversifikatsiya jarayonlari kuchaydi. Bu esa aholi bandligining tarkibiy jihatdan o'zgarishiga va iqtisodiy faollikning ortishiga olib keldi. Shu davrda sanoat tarmoqlarida ham dastlabki rivojlanish jarayonlari kuzatildi.



1-rasm. Tadqiqotlar jarayonida qo'llanilgan metodlar

2017–2025 yillar oralig'ida esa Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarildi. Hududga jalb etilgan investitsiyalar hajmining keskin ortishi, xususan, asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atining yuqori darajada bo'lishi iqtisodiy o'sishni jadallashtirdi. Jumladan, 2021 yilda investitsiyalar o'sishi 448 foizni tashkil etgan bo'lib, bu hudud iqtisodiy rivojlanishining sezilarli darajada faollashganini ko'rsatadi (2-rasm) [5].




2-rasm. Shahrisabz tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi (2017–2021 yillar)

2-rasmdagi grafikda Shahrisabz tumanida asosiy kapitalga jalb etilgan investitsiyalar hajmining o'sish dinamikasi aks ettirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2017–2021 yillar davomida investitsiyalar hajmi izchil oshib borgan va 2021 yilga kelib keskin o'sish kuzatilgan. Xususan, investitsiyalar hajmining 448 foizga oshishi hududda iqtisodiy faollikning kuchayganini va investitsion muhitning yaxshilanganini ko'rsatadi.

Turizm sohasining rivojlanishi ham iqtisodiyotda muhim o'rin egallay boshladi. Xususan, 2023 yilga kelib turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun 450 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etilishi rejalashtirilgan bo'lib, ushbu sohada 5000 ta yangi ish o'rinlari yaratish va xizmatlar hajmini sezilarli darajada oshirish ko'zda tutilgan. Qolaversa 2024-yil Shahrisabz tumani "Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti" sifatida e'tirof etilishi esa xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i ham o'zining yetakchi o'rnini saqlab qolgan bo'lsa-da, uning tarkibida sifat jihatdan o'zgarishlar yuz berdi. Sug'oriladigan yerlarning 18 ming gektarni tashkil etishi, paxtachilik, bog'dorchilik va chorvachilikning rivojlanishi hudud iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon bermoqda.

Sanoat tarmog'ida ham rivojlanish kuzatilib, hududda qo'shma korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati kengayib bormoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish va to'qimachilik sanoati yo'nalishlarida o'sish sur'atlari yuqori bo'lib, bu hududda qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda (3-rasm) [4].



3-rasm. Shahrisabz tumanida aholi bandligining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'zgarishi:

a) 2017-2025 yillar oralig'ida; b) 2000-2010 yillarda oralig'ida

3-rasmda Shahrisabz tumanida aholi bandligining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimoti ikki davr kesimida aks ettirilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2000–2010 yillarda qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq bo'lib, band aholining asosiy qismini tashkil etgan. 2017–2025 yillarga kelib esa xizmatlar va sanoat tarmoqlarining ulushi ortib, iqtisodiyot tarkibida diversifikatsiya jarayoni kuchaygan. Bu esa hududda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi [6].

Ijtimoiy sohada ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Aholi sonining ortishi, bandlik darajasining oshishi va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi hududda turmush darajasining yaxshilanishiga olib keldi. Ta'lim, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish sohalarida amalga oshirilgan islohotlar aholining ijtimoiy farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda [8, 9].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ijobiy dinamik o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuvi, investitsiya faolligining oshishi va xizmatlar sektorining rivojlanishi hududning barqaror rivojlanishiga asos yaratmoqda.

Muhokama (Discussion). O'tkazilgan tadqiqot natijalari Shahrisabz tumanining 2005–2025 yillar oralig'idagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshganligini va ushbu jarayon tizimli o'zgarishlar bilan kechganligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dastlabki davrlarda hudud iqtisodiyoti asosan agrar yo'nalishga tayanib kelgan bo'lsa, keyingi yillarda iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuvi kuzatilgan.

Aholi bandligi tarkibidagi o'zgarishlar ham iqtisodiy transformatsiyaning muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, 2000–2010 yillarda qishloq xo'jaligi sohasining ulushi yuqori bo'lgan bo'lsa, 2017–2025 yillarga kelib xizmatlar va sanoat tarmoqlarining ulushi ortganligi kuzatildi [12]. Bu esa hudud iqtisodiyotida yangi ish o'rinlarining yaratilishi, xizmatlar sektorining kengayishi va sanoatning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Investitsiya faolligining oshishi hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy drayverlaridan biri sifatida baholanadi. Investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va yangi iqtisodiy tarmoqlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar xizmatlar sektorining jadal rivojlanishiga va aholi bandligining oshishiga olib kelmoqda [7, 10, 11].

Shu bilan birga, ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq holda olib borilmoqda. Aholi daromadlarining oshishi, bandlik imkoniyatlarining kengayishi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanishi hudud aholisining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq, hududda suv resurslaridan samarali foydalanish, infratuzilma yetishmovchiligi va yuqori texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq muammolar hali ham mavjud bo'lib, ular kelgusida chuqur tahlil va amaliy yechimlarni talab etadi.

Umuman olganda, Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hududiy iqtisodiyotning agrar yo'nalishdan ko'p tarmoqli va diversifikatsiyalashgan modelga o'tish jarayonini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, 2005–2025 yillar davomida Shahrisabz tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim bosqichlarini bosib o'tdi. Dastlab agrar yo'nalish ustun bo'lgan iqtisodiyot keyinchalik sanoat va xizmatlar sektorining rivojlanishi hisobiga diversifikatsiyalashgan iqtisodiy tizimga aylandi. Bu jarayon aholi bandligining tarkibiy jihatdan o'zgarishi, daromadlar oshishi va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Hududga jalb etilgan investitsiyalar hajmining ortishi, ayniqsa, xizmatlar va turizm sohalarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tarmog'i o'zining ahamiyatini saqlab qolgan holda, zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanib bormoqda.

Biroq, hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun mavjud muammolarni, jumladan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, infratuzilmani yanada rivojlantirish va yuqori texnologiyalarni keng joriy etish masalalarini hal etish zarur.

Kelgusida Shahrisabz tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi investitsiyalarni yanada ko'paytirish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalashni chuqurlashtirish va xizmatlar sektorini kengaytirish orqali yanada barqaror tus olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. (2017). *Harakatlar strategiyasi to'g'risida*. Toshkent. <https://lex.uz/docs/-3107036>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. (2020). *Oliy Majlisga Murojaatnoma*. Toshkent. <https://president.uz/oz/lists/view/3324>.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2005–2023). *Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha statistik to'plamlar*. Toshkent. <https://stat.uz/uz/nashrlar/3681-o-zbekiston-hududlarining-yillik-statistik-to-plami>.
4. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. (2010–2023). *Hududiy statistik ma'lumotlar*. <https://qashstat.uz/uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2021). *Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi*. <https://www.imv.uz/>.
6. Bayqabilov X.M., Saypiyeva F.A. Shahrisabz tumanining iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishi xususiyatlari. "Экономика и социум" №2(141) 2026. <https://www.iupr.ru/>
7. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2015). *Economic Development*. Pearson Education. https://books.google.co.zm/books?id=Oz-1X8IYfKkC&source=gbs_navlinks_s
8. World Bank. (2020). *Uzbekistan Country Economic Update*. Washington, DC. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2020/01/18/uzbekistan-enters-next-phase-of-market-reforms-with-renewed-support-from-world-bank>
9. United Nations Development Programme (UNDP). (2021). *Human Development Report*. <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2021-22>
10. Porter, M. E. (1998). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press. https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter_1990_-_the_competitive_advantage_of_nations.pdf
11. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. MIT Press. Geography and trade : Krugman, Paul R : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive
12. Xaydarov, B. X. (2021). Hududiy iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 4-son. Xaydarov Baxrom 0000-0003-2535-0747 - Google Scholar